TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 7-oktabr | 281-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-sentabrdagi 683-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi xaqida

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-sentabrdagi “Viloyat shahar va tumanlari hududidagi 39 ta davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berish to‘g‘risida”gi 683-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 30-sentabrdagi “Viloyat shahar va tumanlari hududidagi 39 ta davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berish to‘g‘risida”gi 683-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Ilovaga muvofiq Viloyt Madaniyt boshqarmasi Toshkent tuman madaniyt markazi 0.14 gektar “Fayzobod“ mahalla fuqarolar yigini binosi (qurilish osti maydoni) 0.198 gektar egallagan yer maydoni doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.
3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq yer maydonlari ajratilayotgan tashkilotlarning arizalariga asosan, belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.
4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 7-oktabrdagi
281-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani hududidagi davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilayotgan amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari

T/r	**Doimiy foydalanish huquqi bilan yer maydoni ajratilayotgan davlat idorasi nomi**	**Yer maydonidan foydalanuvchi yoki yer maydonida joylashgan obyekt nomi**	**Yer maydoni** *(gektar)*	**Kadastr raqami**
Toshkent tumani bo‘yicha jami – 2 ta			**0,338**	
1.	Viloyat Madaniyat boshqarmasi	Madaniyat markazi	0,14	11:11:01:02:02:0911
2.	“Fayzobod” fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organi	“Fayzobod” mahalla fuqorolari yig‘ini binosi *(qurilish osti maydoni838,66 kv.metr)*	0,198	11:11:09:02:02:0565